



Yusuf HAMDAMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

Filologiya fanlari doktori Yu.Artikova taqrizi asosida

THE PLACE AND ROLE OF INTERNATIONAL PRINCIPLES IN JOURNALISM

Annotation

This article examines the principle of internationalism, which is regarded as one of the fundamental principles of journalism. At the outset, the author provides a definition of internationalism and elaborates on its distinctive features in comparison with other principles, as well as on the aspects of their interconnection. An important part of the article is devoted to the practical manifestation of the principle of internationalism in Uzbekistan, in particular, the creation of favorable conditions for the peaceful, friendly, and fraternal coexistence of nations and ethnic communities within the country.

Furthermore, the article highlights the existence of freedom of the press and freedom of speech among the diverse nationalities residing in Uzbekistan. For instance, the National Television and Radio Company of Uzbekistan broadcasts programs in 12 languages, radio transmissions are carried out in 7 languages of fraternal peoples, and newspapers and journals are published in more than ten languages.

Key words: Journalism, internationalism, friendship of people, national culture centers, nation, principles, press, freedom of speech, article, newspaper, magazine.

МЕСТО И РОЛЬ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация

Статья посвящена интернационализму, который считается одним из важных принципов журналистики. В начале статьи автор дает определение принципу интернационализма и подробно описывает его отличия от других принципов, а также аспекты взаимосвязи. Еще одним важным аспектом статьи является практическое доказательство принципа интернационализма в Узбекистане, а именно то, что в нашей стране созданы все условия для мирного, дружественного и братского сосуществования наций и народностей. В статье также отражена информация о том, что среди разных национальностей, проживающих в нашей стране, существует свобода печати и слова, то есть Национальная телерадиокомпания Узбекистана транслирует свои программы на 12 языках, вещают радиопередачи на 7 языках братских народов, издаются газеты и журналы более чем на десяти языках.

Ключевые слова: Журналистика, интернационализм, дружба народов, национальные культурные центры, нация, принципы, печать, свобода слова, статья, газета, журнал.

JURNALISTIKANING MILLATLARARO TOTUVLIK PRINSIPI: O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola jurnalistikaning muhim prinsiplaridan biri hisoblangan millatlararo totuvlikka bag'ishlangan. Muallif tomonidan maqolaning boshida millatlararo totuvlik prinsipiga ta'rif berilgan va uning boshqa prinsiplardan farqli jihatlari, shuningdek, o'zaro bog'liqlik tomonlari haqida atroflicha aytib o'tilgan. Yana bir muhim jihat—maqolada O'zbekistonda millatlararo totuvlik prinsipining amaldagi isboti, ya'ni yurtimizda millat va elatlarning tinch-totuv, do'st-birodar bo'lib yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgani haqida ham asoslab yozilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatlar o'rtasida matbuot, so'z erkinligining ham amaldaligi, ya'ni O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etayotgani, qardosh xalqlarning 7 tilida radioeshittirishlar berilayotgani, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilayotgani haqidagi ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, millatlararo totuvlik, xalqlar do'stligi, milliy madaniy markazlar, millat, prinsiplar, matbuot, so'z erkinligi, maqola, gazeta, jurnal.

Kirish. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, azaldan millatlararo totuvlik va birodarlik an'analari doimo qadrlanib kelingan. O'zida millatlararo totuvlikni mujassam etgan bu muhim jihat davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan.

Aytish joiz, millatlararo totuvlik prinsipi ham boshqa prinsiplar qatorida o'zbek jurnalistikasida keng targ'ib qilinadi.

O'zbeklar azaldan millatlararo do'stlikni qadrlaydigan xalq bo'lib kelgan. Chunki bu qadim zaminda turli millat va elat vakillari bir tan, bir jon, ahil, inoq bo'lib yashab kelishgan.

Respublikamiz o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin respublika hukumati tomonidan millat-

larning tinch-totuv, do'st-birodar bo'lib yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etildi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, "Millatlararo totuvlik"dir. Bunda juda katta ma'no bor. Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Har bir millatning o'z urf-odat, qadriyatlari bor. Ularning saqlanishiga ham alohida e'tibor berib kelinayapti. Ayniqsa, dunyodagi hozirgi notinchlik, alg'ov-dalg'ov davrda millatlarning totuvligi ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Chunki totuvlik bo'lsa, rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi. Tinchlik, osoyishtalik hukm surgan mamlakatning yon-atrof, qo'shnilari ham tinch bo'ladi. Ha, turli millatlar yashaydigan hudud va yon-atrofidagi mamlakatlarda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabatlar bo'lsa, ularning istiqboli, kelajagi bo'ladi.

Millatlararo totuvlikni saqlash, eng katta muammolardan biridir. Har bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng tarzda ta'minlash, ular rivojini yaxshi yo'lga qo'yish — ana shu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shuning uchun ham bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlar orasidagi o'zaro hurmat, do'stlik, hamkorlik o'sha mamlakatning rivojlanishiga yordam beradi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar yo'lida mehnat qilayotgan bag'ri keng O'zbekiston xalqi, uning yo'lboshchisi millatlararo totuvlik borasida ham juda yaxshi, samarali ishlar olib borayapti. Mamlakatimizda bu muhim g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Davlatning barqarorligi ko'p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish qobiliyatiga bog'liqdir. Keyingi vaqtlarda globallashib borayotgan dunyodagi mojarolar, shu jumladan, millatlararo nizolar kuchayayotgan bir sharoitda, bu muammo, ayniqsa, muhim o'ringa chiqib boryapti. Shu munosabat bilan mamlakatlararo totuvlik har qanday ko'p millatli davlat uchun hal qiluvchi omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda”[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning millatlararo totuvlik borasidagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi”[2].

Bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, deb aniq belgilab qo'yilgan. “O'zbekiston xalqi” tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda “O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”[3], - deb ta'kidlangan. Bu borada respublikamizda ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilayapti. Xususan, 1992 yildayoq milliy-ma'naviy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Baynalmilal madaniyat” markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 157 ta markaz, 42 ta do'stlik jamiyati, va xorijdagi 100 dan ortiq vatandoshlar jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizda do'stlik va bag'rikenglik muhiti, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini mustahkamlash, chet ellar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar, xalq

diplomatiyasini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ko'plab ijobiy natijalarga erishmoqda.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinaётгани, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa amaliy ishlar ham bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir. Bu sa'i-harakatlar aytish joiz-ki, o'z natijasini berayapti. Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlis ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda qaror topgan millatlararo munosabatlarning xarakteriga to'xtalib, “Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshiriladigan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz – O'zbekistonning ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda”[4], - deya ta'kidlab o'tdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bunday xulosani sotsiologik tadqiqotlar misolida ham ko'rish mumkin. “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan “Ko'p millatli O'zbekiston: mustaqillikning 22 yilligi” mavzusida so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnomada O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning holatiga aholi tomonidan berilgan baho va uning rivojlanish tendensiyalari, ularning o'zgarish dinamikasi, mustaqillikning 22 yili ichida O'zbekiston jamiyatida fuqarolar tinch-totuvligiga, barqarorligiga va o'zaro bir-birini tushunishga ko'maklashadigan shar-sharoitlar va omillar ko'rsatilgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respublikamizning aksariyat hududlarida millatlararo munosabatlarga beriladigan baho miqdori ijobiy tomonga o'zgargan. Eng avvalo, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida millatlararo munosabatlarga yuqori darajadagi (100 foiz) baho berilgan[5].

Mamlakatimizda qaror topgan bunday, mutlaqo yangi sifatli holatni xorijlik mutaxassislar ham e'tirof etishmoqda. Yaponiyalik olim Shin Vatanabe fikricha, millatlararo munosabatlar bilan bog'liq muammolarni yechishda uch xil yo'l mavjud. Birinchi yo'l AQSH, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarga xos bo'lib, u iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, turli etnik guruhlarining moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga asoslanadi. Iroq, Afg'oniston, sobiq Yugoslaviya kabi mamlakatlarda namoyon bo'lgan ikkinchi yo'l avtoritarizmga, zo'ravonlikka tayanishi va turli vositalar yordamida har qanday milliylikni bostirishga intilishi bilan ajralib turadi. Uchinchi yo'lning eng yorqin timsoli O'zbekiston bo'lib, unda millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda milliylik va umuminsoniylikning eng yaxshi jihatlari o'zida mujassam etgan ma'naviyat, ta'lim, mehmuruvvat kabi qadriyatlar sinteziga asoslangan siyosat olib boriladi.

Mazkur ijobiy baholar eng avvalo, turli millat va elat vakillariga ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol ishtirok etish uchun tegishli shart-sharoitlarning yaratilgani natijasidir.

Tahlil va natijalar. Milliy mansubligidan qat'i nazar, iqtisodiy faoliyat uchun teng imkoniyatga egalik millatlararo munosabatlarning ijobiy mazmun kasb etishining asosi bo'lsa, jamiyat sosial strukturasi turli qatlamlarining etnik tarkibi unda adolat nechog'li qaror topganining muhim indikator hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ishlab

chiqarishning har xil sohaları bilan bir qatorda turli millat va elat vakillarining respublikamizdagi qishloq xo'jaligi tashkilotlari, zavod va fabrikalar, kompaniya va korporatsiyalar, davlat va jamoat boshqaruvining barcha darajalari samarali mehnat qilayotganlarini, shuningdek, ularning respublika hukumati tomonidan yuksak qadrlanayotganligini ham ta'kidlash zarur.

Mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash yo'lidagi fidokorona mehnati uchun o'zbek xalqi vakillari bilan bir qatorda 1994–2025 yillarda fermer, ishchi, chilangar, tarbiyachi, shifokor, shirkat xo'jaligi raisi, korxona rahbari, cho'pon, yozuvchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan qoraqalpoq, tojik, rus, ukrain, koreys, arab va qozoq millatiga mansub 14 nafar yurtdoshimizning "O'zbekiston qahramoni" oliy unvoni va 13 nafari "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangani, 120 dan ortiq faoli esa davlat mukofotlariga sazovor bo'lgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-mayda imzolagan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Markaz hayotida yangi sahifa ochdi. Farmonga binoan Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlarining Markaz negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mitaning asosiy vazifalari etib, quyidagilar belgilandi:

"jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan, chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish;

davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash;

mamlakatimizda yashovchi turli millat va elat vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish;

xorijiy mamlakatlarda mamlakatimiz tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O'zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil qilishda ko'maklashish va bevosita qatnashish"[6].

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'ttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston — 2030» strategiyasi 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan mo'tabar hujjatning "Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish" bandida bu boradagi muhim vazifalar belgilangan[7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'pmillatli yagona oilaga

mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Davlatimiz milliy siyosatining eng muhim, ustuvor yo'nalishlaridan biri, barcha millatlarning ravnaqi uchun teng sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan 2020-yilgi Murojaatnomada jamiyatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilishiga alohida e'tibor qaratib, mamlakatimizda 30 iyulni "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etdi. "Jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqamiz", — dedi Prezidentimiz, — Barchangizga ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyusiyasi bilan har yili 30 iyul — "Xalqaro do'stligi kuni" sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etaman"[8].

Prezident tashabbusi bilan joriy etilgan 30 iyul — Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan har yili «Do'stlik» festivali bo'lib o'tadi va tadbirlar Millatlararo munosabatlar qo'mitasi va qator davlat idoralari hamkorligida o'tkaziladi. Festival doirasida madaniy ko'rgazmalar, teatr namoyishlari va konsertlar tashkil etiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini ta'sis etish haqidagi tashabbusi ham qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyundagi tegishli qaroriga asosan ko'krak nishoni bilan yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o'rtasida millatlararo do'stlik va totuvlik muhitining mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shgan, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish borasida fidokorona mehnat qilgan, shuningdek, xorijiy mamlakatlar xalqlari bilan do'stlik va har taraflama hamkorlikni rivojlantirishda samarali natijalarga erishgan mahalliy va xorijiy davlat organlari xodimlari, notavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik sub'yektlari, ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari vakillari, chet eldagi vatandoshlar taqdirlanishi ko'zda tutilgan.[9].

Xulosa va takliflar. Jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlik - eng katta boylik hisoblanadi. Bu boylikni avaylab-asrash borasida O'zbekistonda davlatimiz rahbari boshchiligidagi samarali ishlar olib borilayapti. Jumladan, respublika ommaviy axborot vositalarida millatlararo totuvlik mavzusidagi materiallar muntazam tarzda berib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuv va eshittirishlarini 12 tilda namoyish etmoqda, qardosh xalqlarning 7 tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilgan, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Bu muhim, hayotiy g'oya doimo dolzarb mavzu bo'lib qolaveradi.

Taklif sifatida aytish joiz, OAVda millatlararo totuvlik, xalqlar do'stligi mavzularida turli janrlardagi materiallarni ko'proq berib borish lozim. Shuningdek, respublikamizda yashab, umrguzaronlik qilayotgan turli millat va elatlarning ibrat bo'ladigan urf-odat, yaxshi an'ana va qadriyatlarini omma orasida targ'ib-tashviq qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir jihat, xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan o'zbeklarning yashash turmush tarzleri, keyin ularning til, urf-odatlar, qadriyatlar, an'analarning saqlanib qolishi holatlari

haqida ham ma'lumotlar berilib, sotsiologik tadqiqotlar olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртларининг магистрлари учун ўқув қўлланма. –Т.:Университет, 2007. –Б.5.
2. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir (Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq) //Xalq so'zi, 2017, 25 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023, 6. – b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir (Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq) //Xalq so'zi, 2017, 25 yanvar.
5. Каюмов У., Агзамходжаева И. Многонациональный Узбекистан: 22 года независимости //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2013, №3. -С.19.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaati //Xalq so'zi. 2020, 30 dekabr.
7. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2023 yil 11 sentyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaati //Xalq so'zi. 2020, 30 dekabr.
9. "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Uz. Lex. 2021,1 iyun. (335-son).